



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI
OSHIRISH VA TASHVISH DARAJASINI KAMAYTIRISH MAQSADIDA
INGLIZ TILI DARSLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH**

Majidova Komila Nuriddin qizi

SamDChTI Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida til o'rganish imkoniyatlarini pedagogik va psixologik tomondan turli usullar orqali rivojlantirish, darajasini o'stirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning til o'rgatish davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarida namoyon bo'lgan turli muammolariga atroflicha yechimlar beriladi va o'rganiladi. Turli pedagogik o'yinlar, texnik vositalar, psixologik metodlardan foydalangan holda til bilish jarayoni samarali rivojlantiriladi. Bundan tashqari, yosh kelajak avlodda uchraydigan, hozirda dolzarb muammoga aylangan dars jarayonida nafaollik holatlari yuzasidan bir qator duch kelingan muammolarga atroflicha yechim beriladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, motivatsiya, texnologiya, pedagogika, adaptatsiya, Ingliz tili, tilni o'zlashtirish, boshlang'ich sinf, metod, dars jarayoni, maktab.

**USING GAMING TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS TO INCREASE
LEARNING MOTIVATION AND REDUCE ANXIETY IN PRIMARY
SCHOOL STUDENTS**

Annotation. This article is aimed at developing and enhancing the language learning abilities of primary school students through various pedagogical and psychological approaches. During the research process, different problems observed among primary school students in the course of language teaching are thoroughly analyzed, and effective solutions are proposed. By using various educational games, modern technical tools, and psychological methods, the effectiveness of the language learning process is improved. In addition, the article examines the issue of student passivity during lessons, which has become a pressing problem among the younger generation, and provides well-grounded recommendations to overcome these challenges.

Keywords: psychology, motivation, technology, pedagogy, adaptation, English language, language acquisition, primary school, method, lesson process, school.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ



АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ И СНИЖЕНИЯ УРОВНЯ ТРЕВОЖНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Данная статья направлена на развитие и совершенствование языковых способностей учащихся начальных классов посредством применения различных педагогических и психологических подходов. В ходе исследования всесторонне анализируются проблемы, наблюдаемые у учащихся начальной школы в процессе обучения иностранному языку, а также предлагаются эффективные пути их решения. Использование различных образовательных игр, современных технических средств и психологических методов способствует повышению эффективности процесса изучения языка. Кроме того, в статье рассматривается проблема пассивности учащихся на уроках, которая в последние годы стала одной из актуальных проблем подрастающего поколения, и даются научно обоснованные рекомендации по её преодолению.

Ключевые слова: психология, мотивация, технологии, педагогика, адаптация, английский язык, усвоение языка, начальная школа, метод, учебный процесс, школа.

KIRISH

Hozirgi kunda sifatli ta'lim va fan texnologiyalardan foydalanish yuqori cho'qqiga ko'tarilib bormoqda. Bu borada yoshlarimiz ayniqsa ilg'or qadamlar bilan o'z mahoratlarini ko'rsatishyapti. Ta'lim sohasini tilga olganimiz zahoti pedagoglarimiz ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ularni hozirda erishilib kelayotgan turli soha vakillarining yutuqlariga katta sabab bo'lgan shaxslardan biri deb baralla aytsak xato qilmagan bo'lamiz. Har bir sohaning o'z qiyinchiliklari bo'lganidek, ta'lim sohasida ishlaydiganlar ham turli muammolarga duch kelishadi. Bu borada maktab o'quvchilari ya'ni boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarimizning dars jarayonidagi turli duch kelgan muammolarini har xil yo'llar bilan hal qilish haqida atroflicha ma'lumot bersak.

Inson umri davomida atrofini o'rganish orqali o'z qarashlarini o'stiradi. Bunga atrof -muhitda bo'layotgan hodisalar yetarlicha ta'sir o'tqazadi. Ayniqsa, bu holat yosh bolalarda tez ko'rinadi. Ular atrofdagi bo'layotgan voqealarga juda ham tez ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ongi hali nima yaxshi, nima yomon ekanini bilmay turib o'z qarashlari va fikrlari orqali o'sib, o'zgarib boraveradi. Ularning ongi ijobiy tomonlama o'sishida ota-onalarimizning o'rni juda katta. Chunki ular o'z farzandlarini yaxshi tarbiya qilishga majbur va bu davlatimiz konstitutsiyasining oila haqidagi qonunlarida



belgilab qo'yilgan. Ulg'aytirgan farzandini yetarlicha bilimli va aqlli bo'lishini barcha ota onalar ham xohlaydi. Bu borada ularning ta'lim olishi uchun shart sharoitlar yaratib beradi. Ilm dargohi bo'lmish maktabga borar ekan yosh qalbning ko'nglida turlicha fikr va o'y bo'ladi. O'qituvchilar ularning ong va idroklarini o'z taffakkurlari bilan o'stiradi.

Ta'lim olish sifati yaxshilangani sayin unga bo'lgan talablar miqdori ham o'sib bormoqda. Jumladan, hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar til bilish qobiliyatini oshirishga harakat qilishmoqda. Mamlakatimizda yoshlarimizning deyarli barchasi bir yoki ikkita chet tilida bimalol suhbatlasha oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, til bilishga bo'lgan talab yuqori. Ammo, ba'zi yoshlarimizda til bilishda turli muammolar paydo bo'lmoqda.

Bu muammolar ko'proq 1-4- sinf o'quvchilarida ko'p uchraydi. Pedagog sifatida ko'p duch keladigan holatlarimdan biri bu dars jarayoniga faqat faol va harakatchan bolalarning ishtirok etishi lekin passiv va uyalchang bolalarning darsda beetibor, jim o'tirishi. Bunday holatlar juda ko'p va har bir sinfda uchraydi. Bu borada ustozlar juda ko'p yechimlar va yo'llar izlashmoqda. Tabiatan tortinchoq bo'lgan bolalar darsda ham shu holatda bo'ladi, ya'ni ular o'z fikrini va qiziqishlarini erkin va ravon bildiray olmaydi. Bunga bir qancha sabablar bo'lishi mumkin.

Ulardan biri uyida o'z ota onalari tomonidan qattiq tanqid ostiga olinishi, chegara va cheklovlar qo'yilishidir. Bunday holatlar ularni erkin fikrlashini susaytirib, passiv holatga keltiradi. Darsda ishtiroki salbiy darajaga keladi. Shuningdek, oilaviy janjallar, kelishmovchiliklar bolani tortinchoq va qo'rqqoq qilib qo'yadi. Ba'zida bunday holatlarda ota onalar o'zini ayblamaydi aksincha, atrofidan biror bir sabab izlaydi. O'qituvchilar bu turdagi o'quvchilar bilan ishlashda psixologik tomondan chuqur bilimga ega bo'lishi va yetarlicha yechimlarni topa olishi kerak. Bola bilan darsdan keyin alohida shug'ullanib, u bilan do'stona muloqot qilishi, unga turli motivatsiyalar berishi asosiy yechimlardan biridir. Bir bolaga yetti mahalla ota ona deganidek, faqatgina o'qituvchi emas bolaning ota onasi, aka uka, opa singlisi ham ta'sir ko'rsatishi kerak albatta.

O'yin texnologiyalarining pedagogik mohiyati

O'yin texnologiyalari — bu ta'lim jarayonini o'yin faoliyati orqali tashkil etish usullarining majmuasidir. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va bilimlarni tabiiy muhitda egallash imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin yetakchi faoliyat turi bo'lgani sababli, o'yin orqali o'qitish eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'z bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqqan holatda turli



qiziqarli o'yinlardan foydalanib, bolani miyasiga ta'sir ko'rsatadi ya'ni bolada faniga bo'lgan qiziqishini o'stiradi. Keyin bola o'yin orqali fanga bo'lgan e'tiborini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Qiziqarli o'yinlardan foydalanish bolalarda turli ijobiy hislatlarni nomoyon qiladi. Jamoada o'zini ko'rsatish, fikrni ravon bildirish, qarshi fikrlar berish kabilar bolada o'z aksini topadi. O'yin davomida bolani xato qilishdan qo'rqmasligi, hamma xato qilishini anglashi, faollik insonni ko'p natijalarga erishishiga yo'l ochib berishi kabilar singdiriladi. Faol ishtirok etgan bolani rag'batlantirish ularda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Har safar o'yinlarda ko'p ishtirok etishga harakat qiladi va turli muzokara, bahslarda o'z fikrini bildiradi. Takroriy jarayon insonni adaptatsiyaga uchratadi ya'ni holatga moslashish sodir bo'ladi, shuningdek bunday o'yinlar ham bolada ijobiy tomonlama adaptatsiyaga olib keladi. Bola endi o'yinlarsiz ham faollikni kamaytirmaydi.

Ingliz tili ta'limida o'yin texnologiyalari tushunchasi

O'yin texnologiyalari — bu ta'lim jarayonida o'yin elementlari orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod va vositalardir. Ingliz tili darslarida quyidagi o'yin texnologiyalaridan foydalaniladi:

raqamli o'yinlar va mobil ilovalar;
interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz, Wordwall);
rolli va syujetli o'yinlar;
jamoaviy va juftlikdagi o'yinlar;
musobaqa va viktorinalar.

Ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish

Ingliz tili darslarida quyidagi o'yin texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin:

Rol o'yinlari (Role-play) – o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi;
Didaktik o'yinlar – yangi so'z va grammatikani mustahkamlashga xizmat qiladi;
Raqamli o'yinlar va ilovalar – multimedia vositalari orqali qiziqarli muhit yaratadi;
Jamoaviy musobaqalar – hamkorlik va sog'lom raqobatni rivojlantiradi.

Ushbu o'yinlar orqali o'quvchilar tilni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qila boshlaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish mazmunida didaktik o'yinlar alohida ahamiyat kashf etadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotida, ularning barkamol inson bo'lib kamol topishida ulkan tarbiyaviy ta'sir qudratiga egadir.

Didaktik o'yinlar davomida bolalar jamoa bo'lib ishlashga, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqil ishlashga o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilarda intizomlilik, inoqlik va o'z navbatida erkin fikr yurita olishlari kuzatiladi. Ma'lumki 1-



sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti – o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'quv motivatsiyasini oshirishdagi roli va tashvish darajasini kamaytirishdagi ahamiyati

O'yin texnologiyalari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Dars jarayonida o'yin elementlarining mavjudligi bolalarda muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi, faol ishtirok etishga undaydi. Natijada o'quvchilar darsga ijobiy munosabatda bo'lib, bilimlarni tezroq va samaraliroq o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida gapirishda qo'rquv, xato qilishdan xavotirlanish holatlari tez-tez uchraydi. O'yin texnologiyalari norasmiy va qulay muhit yaratib, ushbu psixologik to'siqlarni kamaytiradi. O'yin jarayonida xato qilish tabiiy hol sifatida qabul qilinadi, bu esa o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Dars jarayonida olgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishga undaydigan o'yinlar xilma xildir. Masalan, chet tili darsida so'z topish o'yini juda samarali o'yin turi hisoblanadi. Bunda bola izlanishga va fikrlashga, ko'p so'z o'rganib uni o'z nutqida ishlatishga harakat qiladi. Bu esa so'z bilish qobiliyatini oshiradi. Internetda turli videolar aynan so'z boyligini oshirishga qaratilgan. Bolalar hozirgi kunda ularni maroq bilan tomosha qilib o'zlarini bilimlarini oshirishyapti. O'yinlar boshlang'ich o'quvchilari uchun juda ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchilar darsini o'yinlar orqali o'tishga harakat qilishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim va samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'yinli faoliyat o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelib, ta'lim jarayonini tabiiy, qiziqarli hamda samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang'ich bosqichda ingliz tilini o'rganishda uchraydigan qo'rquv, ishonchsizlik va tashvish holatlarini kamaytirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

O'yin texnologiyalarining ingliz tili darslariga integratsiya qilinishi o'quvchilarning darsga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yin jarayonida o'quvchilar til



birliklarini majburiy yodlash orqali emas, balki muloqot va amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradilar. Bu esa bilimlarning mustahkam va uzoq muddatli bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, o'yin texnologiyalari dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratib, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'zaro hurmat va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilar xato qilishdan qo'rqmay, o'z fikrlarini erkin ifodalashga harakat qiladilar, bu esa ularning nutqiy faolligini oshiradi. Natijada ingliz tilida gapirishga bo'lgan ishonch kuchayib, kommunikativ kompetensiya bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Bundan tashqari, raqamli va interaktiv o'yin texnologiyalaridan foydalanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga mos, raqobatbardosh va ijodkor shaxsni shakllantirishga zamin yaratadi. O'yin asosidagi ta'lim nafaqat akademik natijalarni yaxshilaydi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivoji, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, ingliz tili o'qituvchilari dars jarayonini rejalashtirishda o'yin texnologiyalaridan maqsadli, tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda foydalanishlari zarur. O'yinli ta'lim elementlarini to'g'ri tanlash va qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'rganishga nisbatan barqaror qiziqish, yuqori motivatsiya va past tashvish darajasiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov J. J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 368 b.
2. Qosimova K., Matchonov S. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. – 240 b.
3. Karimova G. K. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 156 b.
4. Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 221 p.
5. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2014. – 288 p.
6. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
8. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.